

---

## Rishton-Soʻx yoʻli ochildi

### RISHTON-SOʻX YOʻLI OCHILDI

Bugun 2019 yil, 30 avgust kuni Oʻzbekiston Mustaqilligi bayramining 28 yilligi arafasida Fargʻona viloyatining qoʻshni Qirgʻiziston bilan chegaradosh barcha nazorat-tekshiruv postlari ochildi. Quvasoy, Vodil, Beshariq, Rishton chegara postlariga xalqaro post maqomi berildi. Bugun, ayniqsa, Rishton va Soʻx aholisi, shuningdek, qoʻshni Qirgʻiziston aholisi orziqib kutgan orzu ushaldi. Aholimiz 10 yil davomida 250 km yoʻl bosib Soʻxga borishiga toʻgʻri kelar edi. Ushbu yoʻlning ochilishi esa 250 km oʻrniga 25 km yoʻl bosib qarindosh-urugʻlarni koʻrish, savdo-sotiq uchun qulaylik yaratdi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabbus va saʼy-harakatlari, ikki mamlakat rahbarlarining odilona, xalqona siyosati, ushbu boradagi topshiriqlarning hududlardagi oʻrinli ijrosi tufayli ushbu postlar ochildi. Bu kunni Markaziy Osiyo xalqlari birdamligi yoʻlida tarixiy kun deb baholasa boʻladi.

Xalq Rishton va Soʻx tumanini bogʻlab turuvchi Qirgʻiziston orqali oʻtgan yoʻlning tantanali ochilish marosimiga yigʻildi. Ikkala chegara postida Oʻzbekiston va Qirgʻiziston bayroqlari hilpirab turar ekan, erta tongdanoq fuqarolarning chegaradan oʻtib boshlaganini koʻramiz.

Rasmiy ochilish marosimini nishonlash uchun chegara postiga Qirgʻizistonning Batken viloyati hokimi A.Q.Madumarov viloyat faollari bilan yetib keldi. Mehmonlar non-tuz va karnay-surnay sadolari ostida kutib olinar ekan, oʻzbek, qirgʻiz va tojik millatiga mansub xalqlarimizning quvonchlari cheksiz edi.

Tantanali marosimni Fargʻona viloyati hokimi Shuhrat Gʻaniyev ochib berdi. Tili, dili, urf-odatlari bir Oʻzbekiston va Qirgʻiziston xalqining doʻstligimiz abadiy boʻlishini tilab, Fargʻona viloyati hokimligi va aholimiz nomidan yaqinlashib kelayotgan bayram bilan tabrikladi. Viloyat hokimi ushbu hodisani jahon tarixida ahamiyatli, ellarni birlashtiruvchi hodisa ekanligiga ahamiyatli hodisa boʻlib qolishini taʼkidladi.

Batken viloyati rahbari Akram Madumarov ham Qirgʻiz Respublikasining va Oʻzbekiston Respublikasining 28 yilligi bilan barchani tabrikladi. Ushbu kun arafasida ushu postlarning ochilishi munosib tuhfa ekanligini bildirdi. “Oʻzbek va qirgʻiz qushning ikki qanotiday. Agar bir qanoti boʻlmasa, qush ucha olmaydi. Tilimiz, dinimiz, ichgan suvimiz bir. Koʻchaga chiqsak, bir togʻni, bir dalani koʻramiz. Qiz olishib, qiz berib kelgan quda ellardanmiz. Ikki elni birlashtirayotgan ikki elning Prezidentlari S.Jeenbekov va Sh.Mirziyoyevga sharaflar boʻlsin. Bundan keyin doʻstligimiz yanada mustahkam boʻlsin. Fargʻona viloyati biz uchun oʻzgachadir. Bu viloyatning yutuqlaridan oʻz yutugʻimizdek xursandmiz.”, - dedi u oʻz soʻzida. Shundan soʻng Batken viloyati nuroniylaridan Qadamjoy rayoni, Mingchinor qishlogʻidan kelgan Mirzagʻoziyev Toshpoʻlat ota hamda Fargʻona viloyati “Nuroni” jamgʻarmasi raisi Topvoldi Xoldorovlar soʻzga chiqib, aholi nomidan minnatdorchilik bildirib, bayram bilan hammani qutladilar.

Choʻngʻara qishlogʻidan kelgan Muhammadiyev Solihoji ota, Madaminov Xoʻjayor ota, Tojiboyev Xalil otalar ham koʻpga rizq, tinch-totuvlik, mehr-oqibat tilab, rahbarlarni duo qildilar.

Qirgʻizistonlik mehmonlarga Rishton kulolchilik mahsulotlaridan sovgʻa ulashildi.

Shundan soʻng oʻzbekistonliklar qirgʻizistonlik mehmonlar bilan birga ochilgan chegara postidan oʻtib Soʻx tumanidagi chegara postining ochilish marosimiga joʻnab ketdilar.

Fargʻona viloyati hokimligi axborot xizmati

